

O'QUVCHILARDA 4KNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Choriyev Umar,
*O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktabalarida fanlarni o'qitishda o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar, ya'ni "4K" modeli bo'yicha fikr yuritiladi hamda ushbu ko'nikmalar Said Ahmedning "Ufq" romani misolida to'liqroq ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, kritik fikrlash, hamkorlik, muloqot, ijodkorlik, kichik tadqiqotchi, qiyosiy metod.

Annotation. In this article, the life skills that should be formed in students in the teaching of subjects in general education schools, i.e. the "4K" model, are discussed, and these skills are more fully illustrated in the example of Saeed Ahmed's novel "Horizon" will be revealed.

Key words: skill, collaboration, communication, creativity, critical thinking, cooperation, communication, creativity, small researcher, comparative method.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi 79-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi 372-sonli buyrug'iga ko'ra ta'lim jarayonida o'quvchilarda quyidagi to'rtta hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligi belgilab qo'yildi.

1. Kollaboratsiya. Bu atama inglizcha ("collaboration") bo'lib, "**hamkorlik**" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni ikki yoki undan ortiq taraflar birgalikda biron ishni amalga oshirishi - kollaboratsiya (hamkorlik) deb ataladi. Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970-yillarda paydo bo'lgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish va o'rganishdir.

2. Kommunikativlik. Bu muloqot qilish qobiliyati bo'lib, ijtimoiy vaziyatlarda ona tili hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish ko'nikmasi hisoblanadi.

3. Kreativlik. Kreativ lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, *ijodkor* ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, o'quvchilarda kasbiy

faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzARB yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

4. Kritik fikrlash. Tanqid (kritika lot.- hukm qilish mahorati) – inson faoliyatining biror sohasiga aloqador hodisani baholash, analiz qilish. Kritik fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish. Tanqidiy fikrlash deganda, ko‘pchilik asosan negativ munosabat bildirishni, birovning fikrini shubha ostiga olish, tanqid qilishni tushunadi. Aslida-chi? Aslida *tanqidiy fikrlash da’voning to‘g‘riligini aniqlashda aqlni oqilona qo’llashdir. Soddarq qilib aytganda, nima qilish yoki nimaga ishonish kerakligi haqida aniq va oqilona o‘ylash qobiliyatidir.*

Masalaning qo‘yilishi. Mazkur tadqiqotimizda kritik qobiliyatni rivojlantirish borasida fikrlashamiz. Hozirgi globallashuv jarayonida har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom fikrashi, har xil zararli oqimlarga kirib ketmasligi, hayotda o‘zining munosib o‘rnini topishi uchun ularning mustaqil fikri bo‘lishi nihoyatda zarur. Albatta, mustaqil fikr deganda, sog‘lom, bunyodkor fikrlash nazarda tutilyapti. Bunda ularning tanqidiy munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. Xo‘s, kritik fikrlash uchun insonda qanday qobiliyatlar bo‘lishi kerak?

Kritik fikrlash uchun insondan quyidagi ko‘nikmalar talab qilinadi:

1. Ehtiyyotkorlik bilan sog‘lom fikrlash.

2. Aql yoki mantiqdan foydalanish.

3. O‘zi ishongan narsalarga (e’tiqodiga) tanqidiy qaray olish, ularning xato bo‘lish mumkinligi ehtimolini qabul qilish.

4. Real hayotda qo‘llay olish.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining yuqoridagi ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida adabiyot darslarida bir qancha topshiriqlarni bajarishni tavsiya qilamiz.

Tavsiya. Buning uchun Said Ahmadning “Ufq” romanini tadqiqot obyekti sifatida tanladik (Sultonmurod Olim, Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Umumiyo‘rtat’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik, T.: 2019).

O‘quvchilarga darslikda berilgan parchadan tashqari asarning to‘liq matnnini o‘qib chiqish tavsiya etiladi. Natijada badiiy asar tahlilini kengroq olib borishga, bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini, tanqidiy fikrlash darajasining rivojlanishiga olib keladi. Shuning uchun biz ham “Ufq” romanining to‘liq matnnini o‘qishni vazifa qilib beramiz. Asar bn to‘la tanishgan o‘quvchilar uchun quyidagi bir nechta tahlil jarayonlarini olib borishni tavsiya qilamiz.

“Kichik tadqiqotchilar” metodi

Ma’lumki, romanning birinchi kitobi “Qirq besh kun” deb nomlanadi. Unda xalqimizning XX asrning 30-yillarida Katta Farg‘ona kanali qurilishidagi qahramonona mehnati, fidoyiligi, qudratli xalq harakati yorqin aks ettirilgan. Asarni o‘qish davomida uzunligi 270 km bo‘lgan kanalni qo‘l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko‘rilmagan jasorat sifatida qayd etilganligining guvohi bo‘lamiz. O‘quvchilar asardagi voqealarni tarixiylik nuqtayi nazardan tahlil qilishlari kerak bo‘ladi. Sinf 2-guruhga bo‘linadi va quyidagi topshiriqlar beriladi.

1. “Katta Farg‘ona” kanali qurilishi haqida ma’lumotlar yig‘ish.
2. To‘plangan ma’lumotlarni faktlar asosida saralash.
3. Umumiyl xulosalar asosida taqdimot qilish.

“Tarixiy-qiyosiy tahlil” metodi

Adabiyotshunoslikda keng qo‘llanadigan metodlardan biri “qiyosiy”, “qiyosiy-tarixiy” deb nomlanadi. Bu metod asosida tadqiqot olib borilganda ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar taqqoslanadi; ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi. Bu metoddan foydalilanigan holda bir qancha yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin:

- dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go‘zal namunalari o‘zaro qiyoslanadi;
- adabiy asarlar yaratilgan davriga ko‘ra taqqoslab o‘rganiladi;
- bir milliy adabiyot vakillarining qiyos uchun asosli asarlari o‘rganiladi;
- milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi;
- adabiy jarayon yoki adabiyot tarixida mavjud adabiy hodisalarning farqli va o‘xhash qirralari tadqiq qilinadi;
- mavzu yoki ilmiy muammo nuqtayi nazaridan o‘zaro yaqin bo‘lgan adiblarning asarlari tekshiriladi;
- adabiy-estetik evolutsiyani kuzatish davomida ma’lum bir adib tomonidan yozilgan asarlar obyekt qilib olinadi¹.

Ushbu metoddan unumli foydalangan holda Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi (1) bilan Asqad Muxtorning “Chinor” romani (2)ni taqqoslasmiz.

1

...Raimberdi endigina oq oralab kelib mo ‘ylovini silab iljaydi:

- *Hukumat bir ish qilsa bilib qiladi. Cho‘lga chiqamiz-u, paxta ekib ketaverarmidik? U joylarda paxta bitishiga ikki qovun pishig‘i bor.*

¹ Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi, T.: 2011. 72-b.

Ikromjon gapga aralashmay bir chekkada jimgina o’tiribdi. Rayimberdi choyni shimirib, piyola chetini yengiga artdi-da, dasturxonga qo'ydi.

— Azbaroyi kolxozchiga madad bo’lsin, yeguligi o’zidan chiqsin, deb shunday qilyapmiz. Avval ikki yilgina sholi ekamiz. Ammo-lekin, Naymanga ko ‘chish ixtiyoriy. Ota aytdilarki, cho'lga ko ‘chib chiqqan oilalarga kuzga qolmay boshpana qilib beriladi. Har brigadadan ikki oila ketsa — o’ttiz to’rt xo’jalik bo’ladi. Binoyidek qishloq qurish mumkin. Ammo kuzgacha chaylada yashab turishga to ‘g’ri keladi. Har bir oilaga o’n olti sotix tomorqa, o’ziga sholi ekib oladi. Daromad taqsimotida qanchadan tushsa, boshqalar qatori yana oladi. Meningcha, bu ishga ko ‘nmaydigan odam bo’lmasa kerak. Ammo-lekin, boshqa kolxozlar ham shunday qilyapti...

... Urush chaqmog’i chaqib, odam o’lib, shaharlar yonayotgan kunlarning birida kimsasiz Nayman cho ‘liga qarab ikki otliq borardi.

Qamishlar orasida ularning boshi goh ko’rinadi, goh suvga sho ‘ng ‘igandek yo ‘q bo’lib ketadi.

Bo’rilarining etni jimirlashtiradigan ulishi, to ‘ng ‘izlarning ko ’ksov yo ‘talidek yoqimsiz tovushi, echkemarlarning murda nigohidek sovuq boqishi, har yer-har yerda qolgan ilon po ‘stlarining ojiz yiltirashi va nihoyat, do ‘ngliklarda haykaldek qotgan sahro sulton — cho ‘l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo’l yo ‘q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo ‘lovchining yuragiga vahm solomasdi...²

Issiq, dim, quyosh endi oqqan payt; to ‘g’ri, bunday mahalda qishloq ko ‘chasida odam bo’lmaydi. Xarsang zinachalarda shalola zarralari bilan o’ynab qiyqirishayotgan qizil ko ‘ylakli qizaloqlarni ko ‘rmoqchidek, ilgarigi odaticha toshdan dadil sakrab, ko ‘cha boshiga chiqqan Orif aka taqqa to ‘xtadi. Avval shuni ko ‘rdiki, zina-zina bo’lib ketgan xarsang qirg’oqlarda hech qanday qizaloqlar yo ‘q edi. Ko ‘chaning ikki chetidagi uylarning ko ‘pi buzilib, sinchlari tashib ketilgan, eshik-derazalarga taxta qoqilgan, xarsang zinalarda botmon-botmon eski paxsa loy bo’lib somoni chiqib yotibdi. Sharsharaning zahridan Orif akaning eti uvushib ketdi. Qandaydir bir qadrdonini yo ‘qotgan odamdek, tizzalari bo’shashib, tepaga asta chiqib bordi. Tanish tor ko ‘chaga qadam qo ‘yishi bilan zax po ‘panak hidi nafasini bo ‘g’di: qarovsiz uzumlarga yoppasiga kul tushgan edi. Kimningdir zaif qo ‘llari bilan tol chiviqqa chala ko ‘tarilgan zanglarda onda-sonda charoslar qorayib ko ‘rinardi-yu, toklarni bachki novda bosib, g’ovlab yotardi. Xayolida o’tmish xotiralari, og ‘ir o ‘ylar, ko ‘nglida g’alati hislar chuvalib, Orif aka jin ko ‘cha-yu eski tokzorlar oralab ancha yurdi. Oyoq ostida xazon shildirar, chirigan uzum boshlarida

² Said Ahmad, Ufq trilogiya, T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1976 y. 295-b.

ari g’uvillar edi. Bu orada cho‘qqi ortiga yumalagan quyosh quriy boshlagan kimsasiz bog‘larni xazonrezgi pallasidagidek sarg‘aytirib yubordi. Orif aka daf’atan dilida qarilik yukini sezdi...³

Orif aka g’ovlagan kakra, supurgi orasida yer bag‘irlab yotgan, kul hidi anqib turgan kasalmand uzumlarni oralab horg‘in yurib bordi. Qarasa, notanish bir chol qiyshayib yotgan ishkom ostida toklarni bolta bilan chopib yiqityapti. Orif aka uzoqroq to‘xtab, cholning hansirashiga, «to‘q-to‘q-to‘q» etgan yolg‘iz bolta tovushiga qulqoq soldi. Bir vaqtlar uning biringchi muhabbat bo‘sasini begona ko‘zdan yashirgan qadrdon keksa toklar gursillab yerga yiqilar edi. Orif aka chala vayron bir chaylaning ustuniga suyanib manglayini sidirib artdi, cholga nima deyishini bilmay uzoq turdi. Shivilg‘onlikni tokka bolta urishga majbur etilgan bo‘lsa, bu yerda anchamuncha voqealar yuz beribdi-da...

– Ota...

Chol avval eshitmadi-yu, keyinroq g‘ira-shirada begona odamni ko‘rib, boltani belbog‘iga qistirdi. Yaktagi ham oppoq, ko‘kragini bosgan junlari ham oppoq, kichkina jussasi bukchayganroq, lekin paylari chayir edi cholning. Salomlashgandan keyin, o‘rik yoyib qo‘yilgan chophonining bir yengiga o‘tirib, nos otdi.

– Uvol bo‘lyapti... Gunoh, – dedi mehmonning yuzida savol aralash achinishni ko‘rib. – Vodiya kasal tarqatadigan joyga aylanib qoldi. Qaraydigan odam yo‘q. Yaxshisi..

– Bu yerning odamlari cho‘lga ko‘chirilganmi?

– Ha, cho‘ldagi yangi sovxozlarga. Tog‘ qishloqlarining hammasi ko‘chgan.

– O‘z ixtiyorlari bilan ko‘chishganmi? – Orif aka ham ro‘paraga chordana qurib, do‘ppisini yerga qo‘ydi.

– Sen kimsan o‘zing, o‘g‘lim? Tanimay turibman, – dedi chol javob berish o‘rniga. Ayyorroq ko‘zlarini qisib qaradi.

– Ismim Orifjon. Hov, Halim otaning nevarasi Saragulni olib ketuvdim, esingizdam!

– E-ha, eshitganman. O‘zingni ko‘rgan emasman-u, eshitganman. Tan-joning omonmi ishqilib? Saragul anov do‘xtir qiz edi-da, u ham olamdan o‘tdi chamamda... Ha a, – Chol nosni tuflab, oq cho‘qqi soqolini siladi. – Qolganlarning umrini bersin... Ha ixtiyoriy, ixtiyoriy ko‘chib ketishdi. Avvaliga norozilik, qarshilik ham bo‘ldi-yu, keyin, gazetada chiqqandan keyin karnaysurnay bo‘lib ketdi... Xizmat qayerda, o‘g‘lim?

– Shu tumanda...

³ Asqad Muxtor, Chinor roman, T.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. 46-48b.

– Ha, hukumatning o’zi biladi ishqilib. Xo’jalikda tunganmas xazina bor, deyishadi. U yerlar hukumatga juda foydali ekan.

– Hozir qishloqda hech kim yo’qmi?

– Bor. Besh-o’nta qari-qartang qolganmiz. Bizlarga foyda ham, xazina ham shu yerda, ota-bobomizning xoki poki....

– U yerlar ham begona emas, ota, – dedi Orif aka.

– To ‘g’ri aytasan, begona emas. Ammo bu yerlar-chi, begona ekanmi? Kimga begona ekan? Cho ‘ldan kelganlar taxta urilgan eshiklarni, ko’zi bekilgan buloqlarni, kul bosgan uzum larni ko’rib yig’lab qaytib ketyapti. Ming xazina topsa ham, odam ko’ngilchan bo’ladi, bolam. Faqat xazina boylik emas, mehr ham boylik. Odam ko’zining quvongani ham boylik.

– Yig’lab qaytib ketishar ekan, shu yerda qolaverishsa bo’lmaydimi? – deb so’radi Orif aka.

Chol yer tagidan qarab qo’ydi.

– Meni sinab nima qilasan, o’g’lim. O’zing tumanda ishlar ekansan... – «Rayon» degan so’zga endi e’tibor berib qoldi shekilli, chol mehmonga xavotir bilan razm solib o’rnidan turdi.

– Bizni rayonda hamma biladi, bizga ruxsat berilgan. Yangi ekansiz, ishonmasangiz borganda nachaylikdan so’rang... Orif aka birdan xavotir olib qolgan cholga rahmi kelib, indayolmadi. Chol uzoqlashib ketdi. Uning birdan g’alati bo’lib qolgan kichkinagini yuzi yo’lda bora-borguncha Orif akaning ko’z o’ngidan ketmadi.

Topshiriq

1. Berilgan ikki matnni o’qing.

2. Matnlarda xalqimizning boshidan kechirgan qaysi tarixiy jarayonlar haqida gap borayotganligini izohlang.

3. Asarlarning yozilgan davriga diqqat qiling.

4. Matnlardagi voqeа-hodisalarining o’xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling.

Yuqoridagi metodlar orqali tashkil etilgan darslarda asosiy e’tibor o’quvchilarning mustaqil fikrashiga, tanqidiy qarashlariga qaratilishi kerak. Bunda o’quvchilar jamoasidagi har bir fikrni hurmat qilish, o’zaro hamkorlikka asoslanish, ularni to‘g’ri yo’naltirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: O'zinkomsentr, 2003.
2. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi, T.: 2011. 72-b.
3. Said Ahmad, Ufq trilogiya, T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976 y. 295-b.
4. Asqad Muxtor, Chinor roman, T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. 46-48b.